

**BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINIF O’QITUVCHISINING METODIK  
TAYYORGARLIGINI TAKIMILLASHTIRISH METODIKASI  
(VEB-KVESTLAR MISOLIDA)**

*Saidova Mohinur Jonpo’latovna*

*Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang’ich ta’lim” kafedrası*

*E-mail: [mohinur.saidova2016@mail.ru](mailto:mohinur.saidova2016@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Masofaviy ta’lim vositasida veb-kvestlarni qo’llash orqali bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining ijodiy faoliyatini tizimlashtirish, mustaqil bilim olish, ilmiy, nazariy, amaliy ko’nikmalarini modifikatsion takomillashtirish mazmuni tahlil etilgan.

**Kalit so’zlar:** Masofaviy ta’lim, boshlang’ich sinf fanlari, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi, veb-kvest, veb-sahifa, veb-sayt.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda globallashtirilgan jarayonlarni o’rganish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish, boshlang’ich ta’lim fanlarni o’qitishga doir muloqotni faollashtirish dolzarbligi bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining intellektual salohiyatini yuksaltirishga e’tibor qaratishni alohida ta’kidlaydi, qolaversa, kasbiy detallashtirish bo’yicha bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarning zarur ko’nikmalari va tayyorgarligini shakllantiradi va belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Internet resurslari bugungi kunda juda dolzarb muammoni – bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kognitiv mustaqilligini rivojlantirishda ajralmas hisoblanadi. Jumladan, buning uchun ta’lim maqsadidagi Web-kvestlar juda qulay vositaga aylanadi [11].

Veb-kvest ilk marotaba 1995 yil Dolge tomonidan ta’lim jarayoniga olib kirilgan. Dolgening fikricha, veb-kvestlar hamkorlik va tadqiqot ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, internetda qidiruvga asoslangan muammoli vazifadir[4].

Veb-kvest o’zlashtirish, tadqiq qilish, qayta ishlash va taqdim etish jarayonida talabalarning izlanish va tadqiqot faoliyati ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan individual yoki guruhli ta’limning axborot, muammoga yo’naltirilgan vazifalari turi sifati tadqiq qilish mumkin [6; 25-b.].

Hozirda Kaliforniya va AQSHda veb-kvestlar berilgan alohida ta’lim saytlari ham mavjud: <http://webquest.org> va Best WebQuests portalida <http://www.bestwebquests.com>.

Veb-kvest texnologiyasi o’qitish mazmunini turli xil kasbiy yo’naltirilgan materiallar bilan sezilarli darajada to’ldirish, internet resurslari imkoniyatlaridan foydalanish, o’quv motivatsiyasini oshirish, mustaqillikni ta’minlash orqali professional kommunikativ va axborot kompetensiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun samarali didaktik vosita bo’lib xizmat qiladi [10; 25-b.].

Veb-kvest - ma'lum bir tarkib bilan ishlash va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shish uchun talabalar tomonidan global tarmoq orqali ishlatiladigan vosita [5; 138-b.].

Veb-kvest - veb-saytlarda joylashgan talabalarni mustaqil izlanishga undaydigan, “ma'lumotlarning bir qismi yoki hammasi bo'lgan veb-loyiha sanaladi” [7; 93-b.].

Veb-kvest - individual yoki guruhli ta'limning informatsion, muammoga yo'naltirilgan vazifalari turi til o'quv materialini o'zlashtirish, tadqiq qilish, qayta ishlash va taqdim yetish jarayonida talabalarning mustaqil, izlanish hamda tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish faoliyati sanaladi” [8; 73-b.].

Sisoyev P.V. va Yevstigneyev M.N. veb-kvestni “multimedia albomi”, “xazina ovi”, “namunaviy mavzu”, “veb-qidiruv va aniqlash” deb talqin qilib, ular veb saytlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarga loyiha faoliyatini tashkil etish uchun ssenariy orqali mavzularni internet resurslaridan foydalanib mazmunan yetkazishni yoritishgan” [9; 97-b.].

**Tahlillar va natijalar:** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil kognitiv faoliyati integrativ fazilatlaridan biri bo'lib, bu o'rganishning ijobiy motivlarini tarbiyalash, ularni qo'llash va yangilarini o'zlashtirish uchun bilim hamda faoliyat usullari tizimini shakllantirish; shuningdek, ixtiyoriy sa'y-harakatlarning keskinligi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini o'quv materiallarini mediaresurslar orqali masofaviy ta'lim sharoitida taqdim etish turli imkoniyatga ega bo'ladi:

**1. Ta'lim olish mazmuni.** Ta'lim olish mazmunini mediaresurslar va an'naviy o'quv mazmunlari, ularning uyg'unligi tashkil etadi. Bular bevosita masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining multimedia, axborot ta'lim resursi, veb-sayt va veb-kvestli darsliklardan ta'lim olish imkoniyatini yaratib beradi.

**2. Bajarish shakli.** Biz taqdim etgan mediaresurslar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv materiallarini veb-kvestlar misolida masofaviy-kognitiv bajarish imkoniyati mavjud.

Amaliyotda qo'llash tavsiya etilgan veb-kvestlarni ikki xil bajarish mazmunan tahlil qilinishi mumkin:

**1. Motivatsion bajariladigan veb-kvestlar.** Masofaviy ta'lim sharoitida motivatsion bajariladigan veb-kvestlardan foydalanish xotirlash, anglash, qo'llash, g'oyalar uyg'unligi, hamkorlik, baholash kabi jarayonlarni ketma-ket tizimga solib tashkil etishga xizmat qiladi.

**2. Kognitiv (ijodiy) bajariladigan veb-kvestlar.** Masofaviy ta'lim sharoitida ijodiy-veb-kvestlardan foydalanish talabalarning sayt orqali muloqotini yo'lga qo'yish, elektron ishlash, mulohaza yuritishga qaratilgan faoliyatli jarayondan foydalanish imkoniyatini beradi.


**3. Natijaviy ko'rsatkich.** O'quv materiallarini mediaresurslar orqali masofaviy ta'lim sharoitida taqdim etish natijasida nafaqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga imkon yaratiladi qolaversa:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'zini shaxsiy rivojlantiradi;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘zini kasbiy rivojlantiradi;  
bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining elektron ta‘lim olishiga imkoniyat yaratiladi;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimi elektron nazorat qilinadi.

Biz tavsiya etadigan maxsus imkoniyatlar mexanizmi metodik tayyorgalikni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy-motivatsion yo‘nalganligiga ustuvorlik berish omillarini o‘zaro samarali optimallashtirish asosida takomillashtirishga xizmat qiladi (1-rasmga qarang):



**1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini masofaviy ta‘lim sharoitida taqdim etish orqali takomillashtirish imkoniyati**

Metodik tayyorgarligikni takomillashtirishda o‘quv materiallarini mediaresurslar orqali masofaviy ta‘lim sharoitida taqdim etishning yuqoridagi turli shakllari bevosita boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy-motivatsion o‘zlashtirishini elektron nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Bizning fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zlashtirishini elektron nazorat qilish o‘quv materiallar mazmuni va uni yetkazish shakligi borib taqaladi. Biz taqdim etgan veb-kvest topshiriqlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimini elektron nazorat qilish imkoniyatini, teskari aloqa o‘rnatishni ta‘minlaydi.

Biz ishlab chiqqan ijodiy veb-kvestlarni masofaviy-kognitiv bajarish orqali, o‘zini o‘zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish ham mumkin.

N.A.Yuldashevaning fikricha kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirishda rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Zero rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi didaktik, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarni bajaradi [4, 12-b.].

Bugungi kun talabasini shaxsiy-kasbiy rivojlantirish elektron ta’lim muhitida samarali tashkil etilib, bu orqali nafaqat qator kompetensiyalarni shakllantirish mumkin, qolaversa talabaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ham imkoniyat yaratib beradi [2, 8-b.].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatlarga tayyorlash uchun umumkasbiy tajriba va bilimlar, refleksiv ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, motivatsion jarayonning asosiy vazifasi sifatida belgilanishi lozim [6, 12-b.].

M.M.Abdullaevaning fikricha, shaxsning o‘z o‘zini baholashni o‘quv motivatsiyasi, intellektual kognitiv motivatsiya, muloqot va xulq atvor motivatsiyasiga bog‘lash mumkin [3, 15-b.].

Talabalarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi bag‘rikenglikka doir kompetensiyalarni shakllantirishi, bag‘rikenglik faoliyatini amalga oshirishga doir motivlarni uyg‘otishga xizmat qilishi lozim [5, 16-b.].

Masofaviy ta’lim sharoitida biz taqdim etayotgan har qanday mediaresurslar quyidagi qator maqsadlarni bajaradi:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini o‘quv materiallarini masofaviy ta’lim sharoitida taqdim etish;
2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zlashtirishini elektron nazorat qilish;
3. Ijodiy veb-kvestlarni masofaviy-kognitiv bajarish;
4. O‘zini o‘zi kasbiy-shaxsiy rivojlantirish;
5. Pedagogning shaxsiy-motivatsion yo‘nalganligiga ustuvorlik berish omillarini o‘zaro samarali optimallashtirish.

Yuqorida ta’qidlaganimizdek bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mustaqil kognitiv faoliyati integrativ fazilatlaridan biri bo‘lib, bu o‘rganishning ijobiy motivlarini tarbiyalash, ularni qo‘llash va yangilarini o‘zlashtirish uchun bilim hamda faoliyat usullari tizimini shakllantirish; shuningdek, ixtiyoriy sa’y-harakatlarning keskinligi bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday imkoniyatga internet resurslari va veb-kvestlar bilan ishlash orqali erishiladi.

E.I.Baguzinaning talqiniga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari veb-kvestning turli xil usullarini qo‘llab, axborot-virtual didaktik platformalarda muammoli vazifani bajaradi. Mazkur o‘qitish usullari birinchi navbatda konstruktiv muammoli-qidiruv xarakteriga ega bo‘lib, ular o‘quv kursiga o‘ziga xos xususiyatlarga nisbatan kiritilishi maqsadga muvofiq [8, 81-b.].

Veb-kvestning boshlanish va yakuniy qismigacha bo‘lgan oraliqni tashkil etish mazmunini MDH va xorijiy olimlar turli mazmunda tahlil qilgan (1-jadvalga qarang):  
1-jadval.

### **Veb-kvestning boshlanish va yakuniy qismigacha bo‘lgan oraliqni tashkil etish mazmuni tahlili**

Ta’lim maqsadlari taksonomiya si B.Blum	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi D.Stil, K. Meredit, CH.Templ	Veb-kvestdan foydalanish usulining bosqichlari B.Dodj, T.March	Veb-kvest mazmunli va kognitiv o’lchovdagi kreativ topshiriqlarni bajarish bosqichi sifatida M.J. Saidova
Bilim	CHaqirish bosqichi	Kirish Topshiriq	Kirish. Tanishtiruv
Tushuni sh Tahlil	Ma’noni anglash	Jarayon Resurslar	Topshiriqni bajarish. Ko’rgazmalar namoyishi
Baholash Sintez	Refleksiya	Natijani baholash Xulosa	Baholash. Umumlashtirish

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisini ijodiy veb-kvest usulidan foydalangan holda o’qitish o’rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshirishga, o’quv motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan. Veb-kvestlardan foydalanish bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisini mustaqil hayotga moslashishga, metodik tayyorgarligini oshirishga, turli vaziyatlarda harakatlana oladigan qilishga ko’mak beradi. Qolaversa, ijodiy veb-kvestlar bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kognitiv, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, tanqidiy fikrlashga, axborot faoliyati ko’nikmalarini rivojlantirishga, o’z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga, ma’lumotlarda navigatsiya qilish jarayoniga yordam beradi [78, 27-b.].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib biz ham masofaviy ta’lim jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining mantiqiy va kreativ fikrlashiga, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan kvestini tashkil etish strukturasi quyidagicha tizimlashtirdik:

1. Kirish (mavzu, maqsad, vazifalar bayoni, takomillashtiriladigan metodik ta’minot mazmuni, kvest qoidalarini masofaviy tushuntirish).
2. Kvest o’tkaziladigan veb-sayt manzili yoki joy bilan tanishtirish.
3. Ijodiy veb-kvestni bajarishda amal qilinishi zarur bo’lgan qoidalar bayoni.
4. Kvestning barcha bosqichlaridan o’tish jarayoni (topshiriqlarni bajarish, maslahatlar olish, jamoaviy va individual qarorlar qabul qilish).
5. Vazifalarni bajarishga yordam beradigan ko’rgazmali materiallarni namoyish qilish.
6. Natijalarni baholash, tyutorning izohi, veb-kvest hisoboti (topshiriqlar sifatini umumlashtirish, tahlil qilish).



Biz yuqoridagi tahlillar orqali masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini ijodiy veb-kvestlar orqali ishlashga o‘rgatish va faoliyatni loyihalashtirish juda samarali ekanligini isbotladik. Aynan veb-kvestlarni qo‘llash jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kognitiv faoliyatda moslashish va ko‘nikma hosil qilishga undaydi.

Xulosa. Shubhasiz, ta’lim jarayonida veb-kvestlardan foydalanishning asosiy afzalligi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini mustaqil tahliliy va ijodiy fikrlashga undash, ularni o‘z natijalari va hamkasblarining natijalarini xolisona baholashga jalb qilishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Амонова Х.И. Олий таълим муассасаларида модулли ўқитиш тизими: объектив реаллик ва юксалиш сари// Педагогика ва психологияда инновациялар. 2020. №2, 486-б.
2. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетенции (на примере студентов неязыкового вуза: дис. ... канд. пед. наук. – М., 2011. – С. 81.
3. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетентности: на примере студентов неязыкового вуза. Диссер. автореф. 2011 27 с.
4. Dodge B. Some thoughts about WebQuests // College of education, 1995. URL: <http://webquest.org/sdsu/aboutwebquests.html> (дата обращения: 03.10.2020).
5. Erben T., Ban R., Castaneda M. Teaching English Language Learners through Technology. – Routledge, New York. – 2009. – P. 138.
6. Волкова О.В. Подготовка будущего специалиста к межкультурной коммуникации с использованием технологии веб-квестов. Диссер. автореф. 2010. 25 с.
7. Воробьев Г.А. Веб-квест технологии в обучении социокультурной компетенции (английский язык, лингвистический вуз): дис. ... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2004. 93 с. Волкова О.В. Подготовка будущего специалиста к межкультурной коммуникации с использованием технологии веб-квестов: дис. ... канд. пед. наук. – Белгород, 2010. – С. 73.
8. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Методика обучения иностранному языку с использованием новых информационно-коммуникационных интернет-технологий. – Ростов н/Д: Феникс; М.: Глосса-Пресс, 2010. – С. 97.
9. Толмачева Е.В. Инновационное обучение РКИ (сфера "Строительный менеджмент") на основе информационно-коммуникативной веб-квест технологии. Диссер. автореф. 2015. 25 с.
10. Зайкин М.И., Напалков С.В. Об общей структуре и содержательной специфике тематического образовательного web-квеста по математике. Современные проблемы науки и образования. ISSN 2070-7428. – 2013. – № 5